

MARKAZIY OSIYO XALQLARNING ETNIK MADANIYATI VA ULARNING O’ZARO TA’SIRI

Abdug‘ofurova Robiya Xusanboy qizi

Namangan davlat pedaogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo‘nalishi 2-kurs talabasi

E-mail : 1abdugofurovarobiya@gmail.com

Tel: +998 99 790 06 23

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21133291>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining etnik madaniyati, ularning tarixiy shakllanishi, urf-odatlar, an‘analari hamda madaniy merosi tahlil qilinadi. Shuningdek, turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar, o‘zaro ta’sir va uyg‘unlik jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘zaro ta’sirning ijtimoiy-madaniy rivojlanishga ta’siri, madaniyatlararo dialog va integratsiya jarayonidagi o‘rni yoritilgan. Tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar hamda zamonaviy tadqiqotlar asosida Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining umumiy xususiyatlari va milliy o‘ziga xosliklari tahlil etiladi. Maqola madaniyatshunoslik, tarix va etnologiya sohalari uchun ilmiy ahamiyatga ega.

Абстрактный: В статье анализируется этническая культура народов Средней Азии, их историческое формирование, обычаи, традиции и культурное наследие. В нем также изучаются процессы культурных связей, взаимодействия и гармонии между разными народами. В статье рассматривается влияние взаимодействия на социокультурное развитие, его роль в процессе межкультурного диалога и интеграции. На основе исторических источников, археологических находок и современных исследований анализируются общие характеристики и национальные особенности культур народов Средней Азии. Статья имеет научное значение для области культурологии, истории и этнологии.

Abstract: This article analyzes the ethnic culture of the peoples of Central Asia, their historical formation, customs, traditions and cultural heritage. It also examines the processes of cultural ties, interaction and harmony between different peoples. The article highlights the impact of interaction on socio-cultural development, its role in the process of intercultural dialogue and integration. Based on historical sources, archaeological finds and modern research, the general characteristics and national identities of the culture of the peoples of Central Asia are analyzed. The article is of scientific importance for the fields of cultural studies, history and ethnology.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, etnik madaniyat, madaniy meros, urf-odatlar, an‘analari, o‘zaro ta’sir, madaniyatlararo aloqalar, milliy o‘ziga xoslik, integratsiya, madaniyatshunoslik, tarixiy meros, xalqlararo munosabatlar.

Ключевые слова: Центральная Азия, этническая культура, культурное наследие, обычаи, традиции, взаимодействие, межкультурные отношения, национальная идентичность, интеграция, культурология, историческое наследие, отношения между народами.

Keywords: Central Asia, ethnic culture, cultural heritage, customs, traditions, interaction, intercultural relations, national identity, integration, cultural studies, historical heritage, relations between peoples.

Tarix fani hozirgi kun haqida mulohaza yuritib, taraqqiyot istiqbollarini belgilash maqsadida bashariyat tarixi, uning barcha qirralari va konkretligi bilan o'rganadi. Jamiyat haqidagi boshqa fanlar qatorida tarix fan ham faktlar, voqealar va jarayonlarni manbalar asosida o'rganadi va shu asosda ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari haqidagi ilmiy dunyoqarashlarni shakllantiradi. Markaziy Osiyo xalqlari turli tarixiy davrlarda har xil nomlar bilan atalib kelingan. Qadimgi Markaziy Osiyoga nafaqat hozirgi Markaziy Osiyo, shu bilan birga Eronning shimoliy-sharqiy va Afg'onistonning shimoliy hududlari ham kiradi. Tarixiyetnologik tadqiqotlar ayrim etnos, elat, shu jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining insoniyat tarixida tutgan o'рни va mavqeini aniqlashga yordam beradi. Tarixiy taqdiri bir, xo'jalik madaniy jihatdan umumiy, maishiy turmush tarzi va ijtimoiy taraqqiyoti o'zaro yaqin mazkur mintqa xalqlari etnografiyasi ko'p jihatdan o'zgaruvchan xarakterga ega. Tarixiy-etnologik va etnik tuzilishi qanchalik barqaror bo'lmasin, Markaziy Osiyo etnoslari zamonlar osha doimo rivojlanib, o'zgarib turgan. Xususan, Markaziy Osiyo xalqlari uzoq va murakkab mashaqqatli tarixiy jarayonning mahsuli bo'libgina qolmay, ma'naviy madaniyat va umumpsixologik xususiyatlari bilan ham nihoyatda jipslashib ketgan. Ushbu xalqlarning xususiyatlarini aniqlash uchun dastlab etnik tarixning ayrim sahifalarini varaqlash zarur.

Shubhasiz Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid eng qadimggi yozma manba bu Zardushtiylarning muqaddas kitobi Avesto hisoblanadi. Avestoda yurtimiz va Mazrkaziy Osiyo hududida qadimdan yashab kelgan aholi, ularning moddiy madaniyati va xo'jalik hayoti haqidagi dastlabki ma'lumotlatni uchratishimiz mumkin. Avesto Markaziy Osiyo xalqlari orasida bir xil bo'lgan ilk diniy e'tiqodning tarqalishi uchun asos bo'lgan. Avestoda Markaziy Osiyo, Eron va Ozorbayjon xalqarining islom dinigacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodi va xo'jalik hayoti, diniy qarashlari, urf-odatlar, olam to'g'risidagi tassavurlari aks etgan. Xususan Avestoda Zardusht o'zi tug'ilgan yurt haqida quyidagi ma'lumotni berib o'tadi: "Bu mamlakatning ko'p sonli lashkarlarini botir sarkardalar boshqaradi, baland tog'lari bor, yaylov va suvlari go'zal, suvga mo'l, chuqur ko'llari, keng qirg'oqli va o'z to'liqlari bilan kemalarni Iskatiya (Skifiya), Pauruta, Mouru (Marv), Xarayva, Gava (So'g'd), Xvarizam mamlakatalri tomon eltuvchi daryolari bor" deb ta'kidlaydi.

O'zbeklar etnik tarixida XV asr oxiri - XVI asrlar ham muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda Markaziy Osiyoga mang'it, qo'ng'iro't, nayman, uyg'ur, saroy, qatag'on, qushchi, do'rmon, kenagas, qirq, yuz, ming, bahrin va boshqa Dashti Qipchoq o'zbek etnik guruhlarining navbatdagi to'lqini kirib kelishi kuchaygan. Natijada Movarounnahr aholisining etnik qiyofasida mo'g'uliy irq alomatlari ham faollashgan. Dashti Qipchoqdan ikki daryo (Amudaryo va Sirdaryo) oralig'i va Xorazmga kelib o'rnashgan etnik guruhlar «o'zbek» nomi ostida mahalliy aholi etnik rang-barangligini birmuncha ko'paytirgan bo'lsalar ham, lekin uning etnik tarkibini tubdan o'zgartirib yubora olmaganlar. Ushbu etnoslar shakllangan o'zbek xalqining tarkibiga kelib qo'shilgan navbatdagi etnik komponent edi, xolos.

Markaziy Osiyo xalqlarining etnik shakllanishi miloddan avvalgi ming yilliklarga borib taqaladi. Eramizdan avvalgi I ming yillikda saklar, massagetlar, so'g'dlar, baqtriyaliklar kabi eroniy guruhlar yashagan. Milodiy birinchi asrlardan boshlab turkiy qabilalar – hunlar, usunlar, qang'lar va boshqalar mintaqaga kirib keldi.

Turli etnoslar o'rtasidagi madaniy aloqalar asosan savdo, din, urf-odatlar, til va san'at orqali yuzaga kelgan. Ipak yo'li orqali Xitoydan Yevropagacha bo'lgan hududlarda savdo yuritilgan va bu yo'l mintaqalararo madaniy integratsiyani kuchaytirgan. Masalan, so'g'dlar savdo orqali turli xalqlar bilan aloqada bo'lgan va ularning yozuvi, san'ati boshqa xalqlarga ham ta'sir ko'rsatgan.

Markaziy Osiyoda zardushtiylik, buddizm, xristianlik (nestorianlik) va islom kabi dinlar iz qoldirgan. Ayniqsa, islom dini IX asrdan boshlab mintaqaning etnik madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Islom ta'siri ostida arab yozuvi, diniy ilm-fan va madaniy me'yorlar turkiy va eroniy xalqlar hayotiga kirib borgan.

Etnik guruhlar o'rtasidagi nikohlar, oilaviy an'analar va marosimlar orqali madaniyatlar o'zaro uyg'unlashgan. Misol uchun, o'zbeklar, qirg'izlar va qozoqlar orasida ba'zi to'y marosimlari, kiyim-kechak yoki ovqat tayyorlashdagi o'xshashliklar shundan dalolat beradi. Bu o'zaro ta'sirning eng jonli misolidir.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixan o'zaro aloqador bo'lgan va ularning etnik madaniyati bir-birini boyitgan. Turli etnoslar madaniyati, diniy e'tiqodlari va ijtimoiy tuzilmalarining bir-biriga ta'siri bugungi kunda ham mintaqaning betakror madaniy ko'rinishini ta'minlab kelmoqda. Bu holat mintaq xalqlarining do'stlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat asosidagi yashash tajribasini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Doniyorov.A.X, Bo’riyev.O.B, Ashirov. A.A. Markaziy osiyo xalqlari etnologiyasi. T.: - 2020. 55-57-betlar
2. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik.-B 122.
- 3 Etnomadaniyat fanidan ma`ruzalar matni. 1-qism. Farg’ona. 2001 y.
4. Bartold V.V. Turkiston tarixi ocherklari, Toshkent: Fan, 1993. (1-bob, 15–27-betlar)
5. Gibb, H.A.R. The Arab Conquests in Central Asia, Cambridge University Press, 1923. (3-bob, 48–52-betlar)
6. Kiselyov S.V. *Qadimgi Farg’ona xalqlari etnografiyasi*, Toshkent: Fan, 1960. (82–96-betlar)